

ZAMONAVIY ADABIY TA'LIMDA O'LKASHUNOSLIK MANBAA VA MATERIALLARINING TURLARI.**Adxamjonova Mushtariybonu Axrorjon qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistranti

e-pochta:adhamjonovamushtariybonu5gmail.com

Namangan viloyati, Norin tuman,

Quvonch ko'chasi 86-uy

Telefon raqam: +998948682266

ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari nomzodi,

dotsent. **Ibroxim Darvishov.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy adabiyot ta'limida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanishning nazariy, amaliy va metodik asoslari keng yoritilgan. Adabiyot darslarida o'lkashunoslik yondashuvini qo'llash o'quvchilarning badiiy tafakkurini, estetik didini, milliy o'zlikni anglashini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Maqolada o'lkashunoslik materiallari — mahalliy adiblar hayoti va ijodi, tarixiy shaxslar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, o'z yurtiga mehr, ma'naviy o'sish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'lkashunoslikni adabiyot ta'limiga integratsiya qilish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni — interaktiv metodlar, loyiha asosida o'qitish, mediaresurslardan foydalanish, raqamli o'lkashunoslik xaritalari yaratish kabi innovatsion yondashuvlar misolida asoslab berilgan. Tadqiqotda o'lkashunoslik materiallari yordamida dars jarayonini jonlantirish, adabiy tahlilni o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'lash, ularni faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etish metodlari tahlil qilinadi. Maqola muallifi o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshirishi balki o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini badiiy shaklda ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini asoslaydi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'lkashunoslik materiallarini tanlash, tizimlashtirish va o'quv dasturiga integratsiya qilishdagi metodik mahorati ham muhim omil sifatida qayd etiladi..

Kalit so'zlar. adabiyot ta'limi, o'lkashunoslik, metodika, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta'lim, milliy qadriyatlar, madaniy meros, mahalliy adiblar, tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi, ijodkorlik, tadqiqotchilik kompetensiyasi, mustaqil ta'lim, integratsiya, innovatsion yondashuv, mediaresurslar, loyiha usuli, interaktiv

metodlar, adabiy jarayon, milliy o'zlikni anglash, estetik tarbiya, o'quvchi faolligi, dars samaradorligi, ilmiy izlanish.

ВИДЫ КРАЕВЕДЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ И МАТЕРИАЛОВ В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье широко рассматриваются теоретические, практические и методические основы использования краеведческого материала в современном литературном образовании. Подчеркивается, что применение краеведческого подхода на уроках литературы имеет большое значение для развития художественного мышления учащихся, эстетического вкуса, понимания национальной идентичности и навыков творческого мышления. В статье анализируются возможности использования краеведческого материала – жизни и творчества местных писателей, исторических деятелей, образцов народного устного творчества – для формирования у учащихся уважения к национальным ценностям, любви к своей Родине, духовного роста и навыков научного исследования. Обосновывается роль современных педагогических технологий в процессе интеграции краеведческого материала в литературное образование – таких инновационных подходов, как интерактивные методы, проектное обучение, использование медиаресурсов, создание цифровых краеведческих карт. В исследовании анализируются способы оживления процесса урока с использованием краеведческого материала, соединения литературного анализа с личным опытом учащихся, вовлечения их в процесс урока в качестве активных участников. Автор статьи утверждает, что использование краеведческого материала не только повышает эффективность урока, но и способствует развитию у учащихся исследовательской компетентности, самостоятельности мышления, умения выражать свои мысли в художественной форме. В качестве важного фактора отмечается методическое мастерство учителя в подборе, систематизации и интеграции краеведческого материала в учебный процесс.

Ключевые слова. литературное образование, краеведение, методика, педагогические технологии, современное образование, национальные ценности, культурное наследие, местные писатели, исторические источники, устное народное творчество, творчество, исследовательская компетентность, самостоятельное обучение, интеграция, инновационный подход, медиаресурсы, проектный метод, интерактивные методы, литературный процесс, осознание национальной идентичности, эстетическое воспитание, активность учащихся, эффективность урока, научное исследование.

TYPES OF LOCAL STUDIES SOURCES AND MATERIALS IN MODERN LITERARY EDUCATION

Abstract. This article broadly covers the theoretical, practical and methodological foundations of the use of local history materials in modern literature education. It is emphasized that the use of a local history approach in literature lessons is of great importance in developing students' artistic thinking, aesthetic taste, understanding of national identity and creative thinking skills. The article analyzes the possibilities of using local history materials - the life and work of local writers, historical figures, and examples of folk oral art - to form respect for national values, love for one's homeland, spiritual growth and scientific research skills in students. It also substantiates the role of modern pedagogical technologies in the process of integrating local history into literature education - such innovative approaches as interactive methods, project-based learning, the use of media resources, and the creation of digital local history maps. The study analyzes methods of enlivening the lesson process using local history materials, connecting literary analysis with students' personal experience, and involving them in the lesson as active participants. The author of the article argues that the use of local history materials not only increases the effectiveness of the lesson, but also serves to develop students' research competence, independent thinking, and the ability to express their thoughts in an artistic form. The methodological skills of teachers in selecting, systematizing, and integrating local history materials into the curriculum are also noted as an important factor.

Key words. literary education, regional education, methodology, pedagogical technology, modern education, national values, cultural heritage, local writers, historical sources, oral folk art, creativity, investigative competence, independent education, integration, innovative approach, media resources, project method, interactive method, literary process, osoznanie natsionalnoy identichnosti, aesthetic education, flying activity, lesson effectiveness, scientific research.

Kirish

Zamonaviy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish, o'quvchilarning milliy madaniyat, tarix, va geografiyaga bo'lgan qiziqishini oshirish, shuningdek, ularning umumta'limiy va ijtimoiy bilimlarini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. O'lkashunoslik materiallari, o'quvchilarni o'z vatanining o'ziga xosliklari bilan tanishtirish va ularda milliy kimlikni shakllantirish uchun zarur vositalardir. Ta'limda o'lkashunoslik materiallarini samarali qo'llash, nafaqat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, balki ularning dunyoqarashini kengaytiradi va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ushbu maqolada, zamonaviy ta'limda o'lkashunoslik

materiallaridan foydalanishning asoslari va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism

O'lkashunoslik materiallari – bu o'lkamizning tabiati, tarixi, madaniyati, va iqtisodiyoti haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan materiallardir. Ushbu materiallar o'quvchilarga o'z vatanining boy merosini o'rganishda va tushunishda yordam beradi. O'lkashunoslik materiallarining asosiy turlari quyidagilar:

Geografik materiallar: O'zbekistonning tabiiy boyliklari, iqlimi, tog'lari, daryolari va boshqa geografik xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi. Bu esa o'quvchiga qayerda yashashini, qanday ulug' va tarixga boy makonda o'sib ulg'ayotganini, o'quvchining qishlog'i yoki shahri bo'lsin qanday nom bilan?, nima uchun bunday? atalganini, qaysi davlat bilan bevosita chegaradosh ekanligini hattoki, ana shu maskanini savdo aylanmasi haqida ham batafsilroq o'rganishiga imkoniyat tug'diradi.

Tarixiy materiallar: O'zbekistonning har bir viloyatining tarixiy merosi, u yerlarda yashab o'tgan bobokalonlarimiz va ularning kelib chiqishi, kimning avlodidan ekanligini hamda hozirda kimga bo'gliqligi haqida va tarixda bo'lib o'tgan eng muhim voqealar, jahon urushlari yokida tarixiy shaxslar tug'ilgan sanalari haqida batafsil yetkazishga harakat qiladi.

Etnografik materiallar: Har birimiz o'zbek deb atalib, O'zbekistonda yashasakda turfa xil qabila va urug'lardan kelib chiqqanmiz. Biz qaysi urug' vakilimiz, qaysi qabiladan kelib chiqqanmiz? Kabi savollarga javoblarni esa aynan biz etnografik materiallar orqali adabiyot darslarida o'rgana olamiz. O'zbekistonning turli etnik guruhlar, har bir qabila yokida joyning o'ziga xos urf-odat va marosimlari, madaniy an'analaridan tortib ularning hashamdor liboslari-yu, mazzali taomlarigacha ma'lumot beradi.

Madaniy materiallar: ayniqsa, yurt-elat tashkil topibdiki uni musiqa yokida san'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi. San'at ana shu davlatni dunyoga tanituvchi xalqining ko'nglini ko'taruvchi muhim manbaa hisoblanadi. Adabiyot esa millatning yuragi "qalblar tili" sifatida e'tirof etiladi va boshqa madaniy boyliklar bilan birgalikda o'quvchiga anglatib boriladi.

Nazariy manbaalar bu zamonaviy adabiyotda o'lkashunoslik fanining asosiy ilmiy va metodik materiallaridan biridir. Ular talabalarga o'lkashunoslik sohasidagi umumiy bilimlarni taqdim etadi. Bu turdagi manbaalar orasida:

Darsliklar: O'lkashunoslik fanining asosiy bilimlarini qamrab oluvchi kitoblar. Ular nazariy bilimlarni olishda talabalar uchun asosiy vositadir.

Monografiyalar: Maxsus mavzularga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar bo'lib, ularning asosida yangi yondashuvlar va g'oyalar keltiriladi.

Ilmiy maqolalar: Turli olimlar tomonidan yozilgan va o'lkashunoslikka oid yangi tadqiqotlar va ilmiy yangiliklarni o'z ichiga olgan maqolalar.

Praktik materiallar

Praktik materiallar o'lkashunoslik darslarini yanada interaktiv qilish va talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish uchun ishlatiladi. Ushbu turdagi materiallar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Kartalar va atlaskalar: Geografik bilimlarni mustahkamlash uchun kerakli materiallar bo'lib, ularning yordamida talabalar o'lkadagi geografik holatlarni o'rganishlari mumkin.

Foto va videomateriallar: Tarixiy hodisalar yoki madaniy merosni ko'rsatish uchun ishlatiladigan materiallar. Ular talabalarni vizual ravishda o'lkashunoslikka oid ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

Ekskursiyalar va amaliyotlar: Talabalar uchun o'lkadagi tarixiy va madaniy joylarga borib, amaliy tajriba o'ttirish imkoniyatini beradigan faoliyatlar. Interaktiv manbaalar

Zamonaviy ta'limda interaktiv manbaalar o'lkashunoslikni o'rgatishda samarali vositalardan biridir. Bu manbaalar talabalarni bilim olish jarayoniga faol jalb qilishga yordam beradi. Ular orasida:

Multimedia resurslari: Video va audio fayllar, interaktiv kartalar va onlayn simulyatorlar orqali talabalar o'lkashunoslik fanidan ko'proq ma'lumot olishlari mumkin.

Onlayn kurslar va platformalar: O'lkashunoslikka oid onlayn kurslar, masalan, Coursera, edX, yoki O'zbekistonda mavjud bo'lgan ta'lim platformalari orqali talabalar mustaqil ravishda bilim olishlari mumkin.

Elektron darsliklar va virtual kutubxonalar: O'lkashunoslik faniga oid elektron darsliklar va kutubxonalar talabalar uchun yangi ma'lumotlarni oson o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot va ilmiy ishlanmalar

Tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar o'lkashunoslikning asosiy rivojlanish manbaalaridan biridir. Ular o'lkadagi ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar asosida yangi metodologiyalar va yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.

Diplom ishlar va dissertatsiyalar: O'lkashunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar bo'lib, ularning natijalari o'lkadagi o'quv dasturlariga qo'shilishi mumkin.

Konferensiyalar va seminarlar: O'lkashunoslik fanida yangiliklarni muhokama qilish va ilmiy g'oyalarni almashish imkoniyatini yaratadi.

Madaniy materiallar

Madaniy materiallar o'lkashunoslik fanini yanada boyitadi. Ular o'lkadagi turli madaniyatlarni o'rganishga yordam beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

San'at asarlari: Madaniy yodgorliklar, rasm va haykallarni o'rganish talabalarga o'lkadagi san'atni va tarixni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyot: O'lkashunoslikda adabiyot va poeziyaning o'rni katta. Adabiy asarlar orqali talabalar o'lkadagi xalqning urf-odatlarini, tilini va madaniyatini o'rganadilar.

Zamonaviy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish nafaqat ma'lumotlarni taqdim etish, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shishdir. Ushbu materiallar, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning fikrlash qobiliyatini oshiradi o'zligini chuqurroq anglashga yordam beradi, tariximizga hurmat va ehtirom bilan qarash shakllanadi. O'lkashunoslik materiallari orqali o'quvchilar o'z vatanining tarixiy, madaniy va geografik o'ziga xosliklarini o'rganib, global miqyosda kengroq qarashga ega bo'lishadi. O'lkashunoslik materiallari o'quvchilarga o'z millatiga bo'lgan hurmatni va sevgini uyg'otadi, bu esa o'z xalqining tarixiy va madaniy merosini saqlashga yordam beradi.

O'lkashunoslik materiallari o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, chunki ular o'z vatanining boy tarixiy va madaniy merosini o'rganishga qiziqishadi. Zamonaviy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish metodikasi ko'plab omillarga bog'liq.

Xulosa

Zamonaviy ta'limda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish, o'quvchilarga o'z vatanining tarixiy, madaniy va geografik o'ziga xosliklarini o'rganishda yordam beradi. Bu materiallar o'quvchilarda milliy o'zlikni rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish va o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Samarali ta'lim uchun o'lkashunoslik materiallarining sifatli, zamonaviy metodlar bilan taqdim etilishi zarur. O'lkashunoslik materiallarining ta'lim jarayoniga to'liq integratsiyasi, shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish o'quvchilarning bilim darajasini va shaxsiy rivojlanishini yuqori darajaga olib keladi. Ular nafaqat ilmiy bilimlarni taqdim etadi, balki talabalar uchun o'lkadagi ijtimoiy, tarixiy, madaniy va geografik xususiyatlarni o'rganishga yordam beradi. Shunday qilib, zamonaviy ta'limda o'lkashunoslik manbaalari va materiallarining samarali qo'llanilishi talabalarning umumiy bilimlarini rivojlantirishga va ularga o'lkadagi turli jarayonlar haqida kengroq tasavvur yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov, U. (2012). *Adabiyot ta'limida estetik tushunchalar*. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti
2. Abdullayev, A. (2012). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining nashriyoti.
3. Mustafae, D. (2014). *Badiiy tafakkur va adabiy tahlil*. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

4. Mahmudov B. “Portret yaratish mahorati”// Xalq ta’limi. – 2010. –2-son.
5. Nazarova, G. (2010). *O‘quvchilarga estetik tarbiya berishning metodik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
- Shamsutdinova, F. (2015). *Adabiyot darslarida badiiy tahlilning o‘rni*. Toshkent: O‘qituvchilar nashriyoti
6. Oripov, A. (1996). *She’riyat va badiiy tafakkur*. Toshkent: Yangi avlod nashriyoti. – 67 b.
7. Raximov, N. (2016). *Badiiy matn tahlili va uning pedagogik ahamiyati*. Tashkent: O‘qituvchilar malakasini oshirish markazi.
8. Sadriddinov, B. (2020). *Adabiyot va estetik tarbiya: Nazariy asoslar va metodik yondashuvlar*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti
9. Yo‘ldosh Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023. – 628 b.
10. Yusufov, S. (2014). *Adabiyotda estetik o‘zgarishlar va tarbiya metodlari*. Toshkent: Universitet nashriyoti.